

1 OKTYABR — O'QITUVCHI VA MURABBIYLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TUMAN HOKIMINING BAYRAM TABRIGI



Dunyoda shunday kasb egalari borki, ularsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. O'qituvchilar esa hayotimiz charog'bonlaridir. Kim bo'lmaylik, qaysi sohada ishlamaylik, barchamizga muallimlar ta'lif va tarbiya berishgan. Shu insonlar borki, hayotimiz nurafshon, ertangi kunimiz — farzandlarimizdan ko'nglimiz to'q.

Aziz ustozlar, mo'tabar murabbiylar!

Avvalo, siz, azizlarni, ta'lif-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan samimiyl muborakbody etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda siz, zahmatkash ustozlarga ko'nglimizda, yuragimizda bo'lgan yuksak hurmat-ehtirom va ezgu tilaklarni so'z bilan to'liq ifoda etish qiyin, albatta. Chunki sizlar dunyodagi eng bebafo boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yo'lida chinakam fidoyilik ko'rsatib mehnat qilayotgan ulug' insonlarsiz.

Shu bois bugun sizlarning sha'ningizga bildirayotgan olijanob istaklarimiz, ta'zim va tashakkurlarimizni sizlarga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtirom sifatida qabul etgaysiz.

Buyuk Istiqlolimizning har bir yili xalqimiz hayotida ulkan yutuqlar bilan muhrланmoqda. Farzandlarimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallayotgani, mustaqil fikrlaydigan, Vatan taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir insonlar bo'lib voyaga yetayotganidan faxrlanamiz.

Buning zamirida shubhasiz, o'qituvchilar va murabbiylarning mashaqqatli mehnati, samarali xizmatlari mujassamdir.

Ustozlarni ulug'lash, ularga hurmat va ehtirom ko'rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularni har jihatdan rag'batlantirish borasidagi ezgu ishlar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Amalga oshirilayotgan ishlarimizning barchasi bir maqsadga – ta'lif-tarbiya sifatini yuqori darajaga ko'tarib, o'quvchilarimizning kelajagini ta'minlashga qaratilgan.

Sizlarga ma'lumki mustaqillik yillarda yurtimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lida amalga oshirilgan ulkan va xayrli ishlar bugungi kunda mamlakatimizni jadal taraqqiy toptirish, boshqalar havas qilayotgan yuksak marralarga erishishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Yurtimizda ta'lif sohasida o'quv muassasalari qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Xususan, tumanimizdagagi 3, 15, 20, 48-maktablarda "Obod qishloq" davlat dasturi doirasida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilib, mahalliy byudjetdan 13 mlrd 9 million so'm mablag' yo'naltirilib, ularga zamonaviy qiyofa bag'ishlandi.

Eng quvonarlisi esa bugungi kunda barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan 3 va 15 sonli umumta'lif maktablarida investitsiya Davlat dasturi doirasida jami 10.1 mlrd. so'm mablag' hisobiga rekonstruktsiya ishlari olib borilib, qo'shimcha 476 o'rinni bino qurilish ishlari hamda 12x24 o'chamli sport zali yangi o'quv yiliga bitkazilib foydalanishga topshirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 martdagagi 40-sonli rayosat yig'ilishi bayoni yuzasidan maktab filiallarni qayta qurish va ta'mirlash bo'yicha loyihasiga asosan 18 va 24-umumta'lif maktablarining filiallarida 3.2 mlrd. so'm mablag' hisobiga rekonstruktsiya asosida 240 o'rinni o'quv binolari qurish ishlari yakunlanmoqda.

Ushbu barcha tadbirlar kelajak avlodimizni kamoloti uchun mo'ljallangani hammamizni quvontiradi.

O'ylaymanki davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik yangi o'quv yilida hurmatli

ustozlarimizning ta'lim mazmuni va samaradorligiga alohida e'tibor berishga da'vat etadi.

Hurmatli ustozi va murabbiylar!

Bugungi bayram barchangizga muborak bo'lsin. Keljakda Vatanimiz ravnaqi, el-yurtimiz shon-shuhratini dunyoga taratuvchi komil insonlarni tarbiyalashda kuch-quvvat, sihat-salomatlik tilayman. Doimo sog' bo'linglar!

Yana bir bor bayramingiz muborak bo'lsin aziz ustozi!

Iljosbek NOVIKOV,

Qo'shtepa tumani hokimi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#)

2022-09-30 10:23:51